



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3 uy

30 iyun 2026 yil.

-08/8-9545-son

Bojxona brokerlari uyushmasi

Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
Farg‘ona yo‘li, 23

Bojxona qo‘mitasi tomonidan Sizning Bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda bildirgan murojaatingiz o‘rganib chiqib, murojaatda keltirilgan masala yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 160-son qarorining 114-bandi ikkinchi xatboshisiga asosan, tizim tomonidan avtomatik tarzda (inson aralashuvisiz) eng ko‘p import qilingan tovarlar bo‘yicha ularning eng quyi narxlari, shu jumladan asosiy tarkibini tashkil etuvchi xomashyo narxidan past bo‘lmagan indikativ narxlar shakllantirilishi belgilangan.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-iyuldagi 470-sonli qaroriga (keyingi o‘rinlarda - Qaror) asosan, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining bojxona sohasidagi muammolarini o‘rganish va hal etish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi Apellyatsiya kengashi (keyingi o‘rinlarda - Kengash) faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, Kengashning asosiy vazifalariga bojxona bojlari bo‘yicha berilgan imtiyozlarni to‘g‘ri qo‘llash va tovarlarning bojxona qiymatini belgilash, shuningdek, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar kelib chiqishining oldini olish borasida bojxona organlariga uslubiy yordam ko‘rsatish yuzasidan bojxona organlariga tavsiyaviy xulosalar berish vazifalari kiradi.

Yuqoridagi tartibotlardan kelib chiqib, 2026-yil 9-yanvarda Kengashning 1-sonli hamda 27-iyunda 2-sonli yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish kun tartibiga bir qator muammoli masalalar kiritilib, yig‘ilish yakuniga asosan tashkilotlar tomonidan kiritilgan 3 ta masalalar bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, Bojxona qo‘mitasi tomonidan “Tovarlarining bojxona qiymatini aniqlash bo‘yicha dastlabki qarorni qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Bojxona qo‘mitasining qarori loyihasi (ID-10254) ishlab chiqilib, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Adliya vazirligiga kiritildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, murojaatingizda keltirilgan masalalar yuzasidan Bojxona organlarida tizimli ravishda ishlar amalga oshirilayotganligi hamda tizim

faoliyatida yuzaga kelayotgan mavjud muammo va takliflarni Kengashda ko'rib chiqish uchun Qaror talablari asosida murojaat qilishingiz mumkinligini ma'lum qilamiz.

**Bojxona to'lovlari
boshqarmasi boshlig'i**



A.Muqimov

Ijr. M.Soxibov
Tel.: 55-502-76-00 (75-15)

SRH8749

SRH8749

SRH8749

SRH8749